

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK VA KICHIK
SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA
YOSHLARNING FAOLLIK DARAJASI**

Rasulov Shavkat Sharof o'g'li

JizPI, Iqtisodiyot va menejment kafedrası dotsenti v.b.

Primqulova Zarina Furqat qizi

Jizzax politexnika instituti talabasi

Annotatsiya: Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror holda rivojlantirishga yordam beruvchi iqtisodiy siyosat xususiyatlarini ishlab chiqish va ularni real hayotga tubdan tatbiq etish kun sayin muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Shundan kelib chiqqan holda, tanlangan tadqiqot mavzusi bugungi kun uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion siyosat, tuzilmaviy siyosat, sanoatlashtirish, modernizatsiya, xorijiy investitsiya, maxsus iqtisodiy hudud, sanoat zonasi, kichik sanoat zonasi, yoshlar sanoat zonasi.

**THE LEVEL OF YOUTH ACTIVITY IN THE ORGANIZATION OF
THE ACTIVITIES OF ENTREPRENEURSHIP AND SMALL
INDUSTRIAL ZONES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Annotation: at the present stage of the development of the world economy, the development of economic policy features and their radical implementation into real life, which contribute to the development of territories in a socially sustainable way, are becoming more important every day. It follows from this that the topic of selected research is of urgent importance for today.

Keywords: investment, investment policy, structural policy, industrialization, modernization, foreign investment, Special Economic Area,

Industrial Area, small industrial area, youth industrial area.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar, texnopark va kichik sanoat zonolari faoliyati samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa xususiy sektorni har tomonlama qo'llab quvvatlash, raqobatbardosh mahsulotlar turini ko'paytirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, bandlik masalasini hal etish va aholi farovonligini yuksaltirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda kichik sanoat zonolari muhim o'rin tutishini ta'kidladi.

Prezidentimizning 2017 yil 23 fevraldagi "Tadbirkorlarning ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanishlarini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim dasturilamal hisoblanadi. Mazkur hujjatga muvofiq, ilgari xususiylashtirilgan, qurilishi tugallanmagan ob'ektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishning samarali mexanizmi joriy qilindi. Viloyatlarda xususiylashtirilgan, faoliyati to'xtab qolgan yoki binolari bo'sh turgan korxonalar o'rganilib, ularni erkin iqtisodiy zonalar tarkibiga kiritish borasida barcha chora-tadbirlar ko'rilmogda. Jumladan, bo'sh turgan binolar negizida kichik sanoat zonolari tashkil etilib, yangi ishlab chiqarish korxonalari ish boshlamoqda.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan bo'lmish sanoatni jadal sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biridir. Mamlakatimizdagi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonolari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish, ularda amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish, xorijiy va mahalliy ishtirokchilar uchun yaratilgan sharoitlatning yuqori darajada qulaylashtirish, bu borada juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohadagi yutuqlarni birgina kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, hamda ular faoliyatini yo'lga qo'yish jarayonida amalga oshirilgan ishlarni ko'rsatib o'tish orqali qanchalik ildam harakatlanyotganini ta'kidlashimiz mumkin.

2017-yilning birinchi choragida 52 ta kichik sanoat zonolari ro'yhatga olingan bo'lsa, 2017 yilning sentabr oyiga kelib ularning soni 96 taga yetishi, 2018 yilining dastlabki choragida ularning sonining 100dan oshib ketganligi, hozirgi kunda ularning soni 112 tani tashkil qilgan holda ushbu sohada ijobiy ishlar olib borilayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga kichik sanoat zonalarining tarqalish geografiyasi mamlakatimizning deyarli barcha mintaqalariga yoyilganligi sanoat rivojining butun yurtimiz bo'ylab jadal o'sishiga turtki bo'ladi.

Kichik sanoat zonalarini tashkil qilish va rivojlantirish borasida yurtboshimiz

Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi hukumatimiz tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

“Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturining 156-bandida Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonolari tajribasi asosida barcha shahar va tumanlarda “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonolari”ni tashkil etish bilan bog'liq vazifalar belgilangan.

Qarorga ko'ra, 1-sentyabrgacha 77 ta, 2022-yil 1-yanvargacha jami 219 ta sanoat zonolari ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilishi belgilangan.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan 100 million AQSh dollari, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xorijiy banklar va xususiy moliya kompaniyalarining qarzlari, jamg'armaning bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklari depozitlariga belgilangan tartibda joylashtirishdan tushadigan daromadlar, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari etib belgilandi.

Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonolari hududida maydoni 1000 m² gacha bo'lgan yer uchastkalari, istisno tariqasida, elektron auksion savdosi o'tkazmasdan, xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarining qarori bilan ajratiladi. Bunda, bo'sh bino va inshootlar (davlat ko'chmas mulk obektlari) shartnoma asosida har yili

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun belgilanadigan ijara to‘lovining eng kam miqdoridan oshmagan stavkalarida ijaraga beriladi.

Patent asosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni ta'minlovchi startup-investitsiya loyihalari, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan investitsiya loyihalari, shuningdek, import o‘rnini bosadigan va eksportga yo‘naltirilgan raqobatbardosh mahalliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda yaratiladigan yangi ish o‘rinlarining kamida 70 foizi yoshlar uchun mo‘ljallangan, shu jumladan, bandligi ta'minlanmagan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni ish bilan ta'minlash nazarda tutilgan investitsiya loyihalari Yoshlar sanoat zonalari hududida joylashtirilishida ustuvorlikka ega bo‘ladi.

Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari doirasida:

- moliyaviy resurslar tijorat banklari tomonidan bir yosh tadbirkorlik subekti uchun bir yo‘la 100 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda 7 yilgacha muddat bilan taqdim etiladi;

- qiymati 100 ming AQSh dollari ekvivalentigacha bo‘lgan investitsiya loyihalari Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi, undan oshgan qismi esa ushbu qarorda nazarda tutilgan imtiyozlarsiz, tijorat banklari orqali umumiy tartibda taqdim etiladi;

- tijorat banklariga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun moliyaviy resurslar Jamg‘armaning mavjud mablag‘lari doirasida, milliy valyutadagi kreditlar bo‘yicha yillik 10 foiz, xorijiy valyutadagi kreditlar bo‘yicha yillik 2 foiz stavkalari bilan taqdim etiladi;

- tijorat banklari milliy valyutadagi kreditlarni o‘z marjasi miqdorini 4 foizdan oshirmasdan yillik 14 foiz, xorijiy valyutadagi kreditlarni — o‘z marjasi miqdorini 1 foizdan oshirmasdan yillik foiz stavkasini 3 foiz miqdorida belgilagan holda ajratadi;

- tijorat banklari ajratilgan moliyaviy resurslarning maqsadli foydalanilishi va to'liq qaytarilishini doimiy monitoring qilib boradi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan tijorat banklariga Yoshlar sanoat zonolari hududida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun binolar qurish maqsadlariga moliyaviy resurslar Jamg'armaning moliyaviy ko'rsatkichlari va uning resurs bazasidan kelib chiqqan holda beriladi, shu jumladan:

- Jamg'arma mablag'lari hisobidan tijorat banklariga yosh tadbirkorlik subektlari uchun bino qurishga beriladigan moliyaviy resurslar milliy valyutada yillik 10 foiz stavkasi miqdorida belgilangan holda taqdim qilinadi;

- tijorat banklari tomonidan yosh tadbirkorlik subektlariga binolarni lizing asosida berish milliy valyutada yillik 14 foiz stavkasini qo'llagan holda amalga oshiriladi.

Bunda, yosh tadbirkorlik subekti boshlang'ich to'lov sifatida lizingga beriladigan bino qiymatining 10 foizini tashkil qiluvchi qismini to'laydi.

Qarorda belgilanganidek, 2023-yil 31-dekabrga qadar Yoshlar sanoat zonolari hududida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining ta'minoti bilan bog'liq quyidagilarni nazarda tutuvchi tartib joriy etiladi:

- Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tijorat banklarining kreditlari bo'yicha kredit summasining 50 foizigacha miqdorida, biroq 500 mln so'mdan oshmagan miqdorda kafilliklar beradi;

- ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ziyod bo'lgan sug'urta tashkilotlari tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlarning 50 foizigacha miqdorida, biroq 500 mln so'mdan oshmagan miqdorda, yillik 2 foiz stavkasida sug'urta polisini taqdim etadi.

Muxtasar aytganda, mazkur Qaror yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslari, startup-loyihalari va amaliy tadqiqotlari natijalari ro'yobga chiqarilishiga ko'maklashish, yosh tadbirkorlik subektlarining sanoat va xizmat ko'rsatish sohalaridagi loyihalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashda alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari.
www.stat.uz
2. Shermuhamedov B.U. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №5 oktyabr, 2017-yil
3. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R. Inson taraqqiyoti. Darslik.- T.: Iqtisodiyot, 2013.
4. Sharifa, R., & Sayyora, M. (2023). HISTORY OF EMERGENCE OF MANAGEMENT AND ITS PLACE TODAY. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 1093-1096.
5. Sharifa, R. (2023). DIRECTIONS FOR INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN REGIONS. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 1088-1092.
6. Sharifa, R., & Nozima, T. (2023). QUALITY MANAGEMENT IN COMPETITIVE CONDITIONS IS THE MAIN FACTOR OF ENTERPRISE SUCCESS. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(20), 200-203.
7. Sharifa, R., & Mahliyo, K. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF ENTERPRISES AND THEIR APPEARANCES. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 2(5), 77-83.
8. Gaybullayevna, R. S. (2023). WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IS A FACTOR OF INCREASE IN OUR COUNTRY'S ECONOMIC WELFARE AND SOCIAL DEVELOPMENT. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 2(5), 73-76.